
Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashining navbatdagi sessiyasi o'tkazildi

Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashining navbatdagi oltinchi chaqiriq yetmish ikkinchi sessiyasi o'tkazildi. Unda Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, tuman hokimining o'rinbosarlari, kun tartibidagi masalalarga aloqador davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Deputatlar sessiya kun tartibiga kiritilgan birinchi masala -Xalq deputatlari Farg'ona viloyat Kengashiga saylov o'tkazish bo'yicha okrug saylov komissiyalari a'zoligiga nomzodlarni hududiy saylov komissiyasiga tasdiqlash uchun tavsiya etish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishdi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan Farg'ona viloyati Adliya boshqarmasi Rishton tumani adliya bo'limining tumandagi davlat organlari va tashkilotlarida norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati bo'yicha 2024 yil 2-choragi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida bo'lim boshlig'i I.Isaqov axboroti tingladi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan deputatlar tomonidan berilgan savollarga mas'ullar tomonidan javoblar berildi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan qaror loyihalari deputatlar tomonidan tasdiqlandi.

2024-08-09 12:01:56